

UCHINCHI RENESSANS G’OYASINI MILLIY G’OYAGA AYLANTIRISHI.

Salimova Madina Anvarovna
Jizzax shaxar 19-DMTT direktori.

Annotatsiya: *Bugungi yangi O‘zbekistonda ham ana shunday muhit yaratlishi bilan bir qatorda yoshlar ijodda ham, ilmda ham, tarbiyada ham peshqadam bo‘lishi muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada uchinchi renessans g’oyasini milliy g’oyaga aylantirishi haqida so‘z borgan.*

Kalit so‘zlar: *Komil inson, boshlang‘ich ta‘lim, pirovard, donishmandlikning asosi, taraqqiy etgan, ilmning rivojlanishi, hayotni o‘rgatuvchi, ma‘rifiy-tarbiya, yuksak axloqiy fazilatlar.*

Abstract: *In addition to creating such an environment in today’s new Uzbekistan, it is important for young people to be leaders in creativity, science, and education. This article talks about turning the idea of the third renaissance into a national idea.*

Key words: *Perfect person, primary education, ultimate, basis of wisdom, developed, development of science, life teacher, educational and moral qualities.*

O‘zbekistonda XXI asrda Uchinchi Renessans davri barpo etilishiga ishongan odam qalban yurtimizni avvalgi Renessanslar davrida bo‘lgani kabi, eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatorida ko‘radi. Yurtimizning kelajagi nima sababdan buyuk bo‘lishi, nega bunchalik ishonch bilan aytilayotgani haqida tushunchasi bor, shuning uchun ham u xulosa chiqara oladi. Ikkinci Renessans poydevorini yaratishda bosh bo‘lgan Amir Temur ishni dastlab farzandlar tarbiyasidan boshladi. U yoshlar tarbiyasi borasida qator muhim ishlarni amalgalashmoqdi. Birinchidan, har bir qishloqda boshlang‘ich ta‘lim beruvchi maktablarni tashkil qildi. yoshlarning, pirovardida xalqning savodli, bilimli bo‘lishiga erishdi. Mamlakatdagi ma‘rifiy-tarbiya ishlari davlat tomonidan idora qilinishi zarur, deb hisoblab, o‘zi bu ishda o‘rnak bo‘la oladi. Ikkinchidan, ilmning rivojlanishida turli sohadagi kitoblarning ahamiyati kattaligini nazarda tutib, kitobni “donishmandlikning asosi” va “hayotni o‘rgatuvchi”, “insonni tarbiyalovchi vosita” deb baholadi. Komil insonni shakllantirishda bilim bilan tarbiyani o‘zaro aloqador deb tushundi. Uchinchidan esa, davlat kelajagi bo‘lgan yoshlarni yuksak axloqiy fazilatlarga ega, insonparvar, jismonan baquvvat, vatanni sevadigan, harbiy bilimga ega, milliy g‘ururli etib tarbiyalashni asosiy talablardan deb bilamiz.

Hozirgi davrga kelib rivojlanayotgan Yangi O‘zbekistonda “Uchinchi renessans” atamasini ko‘rmagan, eshitaman odam topilmasa kerak. Qani ko‘raylikchi hamma takror-takror aytayotgan, onmaviy axborot vositalari orqali tez-tez ma‘lumot berilayotgan “Renessans” “o‘zi nima? Renessans fransuzcha so‘z bo‘lib, qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug‘ilmoqma nosini anglatadi, madaniyat, ilm-fan, san‘at, ta‘lim-tarbiya, umuman, jamiyat hayotida uzoqmuddatli bir xillikdan keyin qayta rivojlanish, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimining yangilanish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev chorak asr davomida milliy tiklanish bilan shug'ullanganimizni eslar ekan, endi milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tganligimizni alohida ta'kidlab, uchinchi Renessansga erishishni strategik vazifa qilib belgiladi. Birinchi Renessans Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda ro'y berdi. Bu davrda davlatni boshqarish siyosati, yer-suv, soliqlar bilan bog'liqfarmonlar chiqarilishi, olimlarga munosabat kishilarda ertangi kunga ishonch uyg'otdi. Ularning turli fan sohalari (matematika, astronomiya, tibbiyat, huquq, kimyo, geodeziya va dunyoning tuzilishi haqidagi ilmlar)ga qiziqishi ortishiga sabab bo'ldi. Odamlar bolalarini o'qitish uchun ustoz qidira boshladi. Bu davrda yashab ijod etgan Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobi, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Zamaxshariy kabi mutafakkirlar, imom Buxoriy, kabi buyuk muhaddislarimiz, Moturidiy, Abulmuin Nasafiy kabi mutakallimlar hamda ulardan tahsil olgan shogirdlari, safdoshlari tabiiy va aniq fanlar doirasida, islam dini osmonida yulduzday charaqlay boshladi. Ularning izlanishlari, kashfiyotlari va g'oyalaridan butun dunyo bahramand bo'ldi. Bugungi kunga qadar ham ularning o'lmas merosidan foydalanib kelmoqdamiz.

Mintaqamizda Ikkinci Renessans poydevori Amir Temur nomi bilan bog'liq Sohibqiron bobomiz Ikkinci Renessans homiysi, asoschisi sifatida tarixga muxrlangan. Amir Temur markaziy boshqaruvgaga asoslangan qudratli sultanatni barpo etish bilan birga, mamlakatda madaniy-ilmiy yuksalish uchun ham munosib sharoit yaratishga intildi. Turli hududlardan diniy va dunyoviy ilm sohiblari, shoirlar, me'morlar, hunarmandlar va boshqalarni yig'ib, ular orqali mamlakatning ilmiy va madaniy qudrati yuksalishiga zamin yaratdi.

Bugungi yangi O'zbekistonda ham ana shunday muhit yaratishi bilan bir qatorda yoshlar ijodda ham, ilmda ham, tarbiyada ham peshqadam bo'lishi muhim hisoblanadi. Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni ta'minlash muhimligiga e'tibor qaratilmoqda. Bu borada yoshlarga barcha sohalarda keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. “Inson huquq va erkinliklari”, “Qonun ustuvorligi”, “Ochiqlik va oshkorlik”, “So'z erkinligi”, “Din va etiqod erkinligi”, “Gender tengligi”, “Iqtisodiy erkinlik” kabi demokratik tushunchalarning hayotiy voqeylek aylanib borayotgani ham aslida yangi bosqichga o'tganimizdan dalolat beradi. Butun O'zbekiston xalqining, prezidentimizning yuksak ishonchini oqlagan holda biz yoshlar “Uchinchi Renessans bunyodkorlari” bo'lishimiz kerak. Bu borada eng avvalo barcha jabhalarda jahon minbarlarini egallashimiz, Uchinchi Renessans g'oyasini milliy g'oyaga aylantirishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2020 yil 30 dekabr. 2-bet.

“Молодой исследователь”

Организовано в масштабах Содружества Независимых Государств (СНГ)
международный научно-практический конкурс

2. Imomnazarov M. Eshmuhammedov M. “Milliy ma’naviyatimiz asoslari” T.”Yangi avlod”, 2001y.
3. Otamurodov S. va boshqalar. “Ma’naviyat asoslari” T.”Ma’naviyat”, 2002y.
4. Mahmudov T. “Mustaqillik va ma’naviyat”. T.”Ma’naviyat”, 2000y.
5. www.ziyonet.uz.